

7-10-2019

WORKING WITH STUDENTS IN A HURRY IN ENGLISH CLASSES

Nargiza Abdullaeva

Namangan State University Chair of English language and literature senior teacher

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Abdullaeva, Nargiza (2019) "WORKING WITH STUDENTS IN A HURRY IN ENGLISH CLASSES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 3 , Article 57.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/57>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

WORKING WITH STUDENTS IN A HURRY IN ENGLISH CLASSES

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

CHET TILI DARSLARIDA AYRIM SHOSHQOLOQ TIL O`RGANUVCHILAR BILAN ISHLASH.

Namangan Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida katta o`qituvchisi Nargiza Abdullayeva

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tili darslarida o`qituvchi o`z darsini muvoffaqiyatli chiqishida ayrim "Shoshqoloq" til organuvchilar bilan qay darajada ish olib borishi kerakligi, oqituvchi shu kabi o`quvchilar bilan qanday munosabatda bo`lishi va shu holatlarda kelib chiqadigan ayrim muammolarni oldini olish uchun nimalarga e`tibor berish lozimligi to`g`risida fikrlar bayon etilgan.*

***Kalit so`z va iboralar:** til o`rgatish jarayoni, shoshqoloq til o`rganuvchi, yondashuv, usul, o`qituvchining sevimsizligi bo`lishi, darsning muvoffaqiyati.*

WORKING WITH STUDENTS IN A HURRY IN ENGLISH CLASSES

Namangan State University Chair of English language and literature senior teacher
Nargiza Abdullaeva

***Abstract:** In this article it was discussed some issues with students in a hurry in teaching process and how to teach them effectively. What should teachers do in order to give them behave correctly during the lesson. The author shared some ideas from own experience and tries to justify them with examples.*

***Key words:** language learning, students in a hurry, approach, way of teaching, trying to be teacher`s pet, success of the lesson.*

РАБОТА С ТОРОПЛИВЫМИ УЧЕНИКАМИ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Кафедра английского языка и литературы Наманганского Государственного Университета Наргиза Абдуллаева

***Аннотация:** В данной статье описываются некоторые способы эффективной работы с торопливыми учениками на уроках иностранного языка, а также методы устранения проблем в работе с данными учениками.*

***Ключевые слова:** торопливые ученики, способы эффективной работы, методы устранения, постараться быть любимым учителем.*

Bir necha yillik pedagogik tajribamda chet tili o`qituvchisi sifatida bir qator darslarni kuzatish mobaynida, ayrim sinflarda shu xolatni kuzatdim, ya`ni b a`zi bir o`quvchilar darsda doimo ilg`or bo`lishni yoki o`qituvchining sevimsizligiga aylanishni xohlaydilar va bunga erishish uchun berilgan topshiriqni bajarishda shoshqoloqlik bilan yondashadilar. Tasavvur qiling, siz yaxshigina dars o`tib boryapsiz, o`quvchilaringizdan biri sizga tinimsiz, o`rinsiz savollar berib xalaqit qiladi. Yoki yangi mavzu asosida biror

topshiriqni til o'rganuvchilarga individual bajarish yuklatilgan bo'lsa, o'sha o'quvchingiz doimo shoshqoloqlik bilan "birinchi" bo'lishga xarakat qiladi, oz vaqt sarflab, sabrsizlik bilan nimanidir bilishini sizga isbotlamoqchi bo'ladi. Ushbu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki bu kabi o'quvchilar asli yomon hulqli ba'zi bolalardan tubdan farq qiladilar. Ular faqat darsda shoshib harakat qiladilar, aslida esa yomon o'quvchi emasliklarini o'qituvchi doimo yadda saqlashi lozim. Bu kabi o'quvchilar uchun ingliz tilida "trying to be teacher's pet" iborasi mavjud bo'lib, u asosan salbiy ma'noga ega va ko'proq yuqoridagi toifaga tegishli til o'rganuvchilarga nisbatan sinfdagi boshqa o'quvchilar tomonidan qo'llaniladi. Buyuk Britaniyalik ingliz tili o'qituvchisi Paul Bress o'z maqolasida [1] bu kabi til o'rganuvchilarga nisbatan "Students in a hurry" (SIAH) iborasini qo'llaydi. Bu iborani o'zbek tiliga shoshilib harakat qiluvchi o'quvchilar deb tarjima qilish mumkin. Muallifning fikricha bu toifa o'quvchilarning SIAH bo'lib qolishiga, agar ular qo'shimcha kurslarda pul to'lab o'qiyotgan til o'rganuvchilar bo'lsa, ma'lum bir darajada pulning ham ta'siri bo'lishi mumkin. Bu SIAH til o'rganuvchilar oz vaqt ichida ko'p bilim olishga xarakat qiladilar, chunki bu o'rinda moliyaviy holat ustunlik qiladi. Natijada o'z guruhdoshlari tomonidan iliq kutib olinmaydi va boshqa til o'rganuvchilar "shoshqoloqlar" bilan birga ishlahsni xohlamaydilar. O'z darslaringizni mazmunli tashkil etishda, sinfingizdagi shoshqoloqning mashg'ulotingizga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun nimalar qilish lozim? Ushbu maqolada asosan pedagogik tajribam va o'qib o'rganganlarim natijalaridan ayrimlarini siz bilan baham ko'rmoqchiman.

Eng avvalo o'qituvchi o'zining sinfidagi shoshqolog'ini darsga qatnashishdan maqsadi nima ekanligini bilib olishi kerak va keying o'rinda o'quvchisining darsda o'zini bu xolatda tutayotganidan xabari borligini bildirib qo'yishi lozim. Buni o'qituvchi qay tarzda amalga oshirishi lozim? Agar o'qituvchi to'g'ridan to'g'ri "Sen nima uchun darsda doimo shoshasan va halaqit qilasan? Bu yomon odat." Kabi so'zlar bilan murojaat qilsa, bu boshqa o'quvchilar orasida bizning ushbu shoshqolog'imizga yomon ta'sir qilishi mumkin. Agar u kichik yoshdagi yangi til o'rganuvchi bo'lsa, tilga bo'lgan qiziqishi va o'qituvchiga bo'lgan ishonchi so'nadi. [2] Katta yoshdagi til o'rganuvchilar esa o'qituvchisi bilan tortishib, aksincha darsingizni muvoffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelishi mumkin. Mohir pedagog sifatida bunday vaziyatlarda o'qituvchi shunday yo'l tutishi kerakki, ushbu doimiy shoshilinchda bo'lgan o'quvchi o'zining xatti-xarakatlaridan uyalib tinchlanib qolsin. Masalan men o'z dasimda ko'z qarashlarimni faqat shoshqolog'imga qadab bir necha daqiqa turish orqali yoki uning ismini mavzuni tushuntirishda misol tariqasida qayta-qayta berish bilan, yuqoridagi holatdan habardor ekanligimni bildirishim mumkin. Agar men ingliz tilidagi "Past simple" bilan "Present perfect" zamonini farqini tushuntirayotgan bo'lsam, misollarni shoshqolog'imning ismi orqali berardim. Masalan, Ahmad always hurried during the lesson last year. (Past simple) Ahmad has just had an excellent mark because he never hurries during the lesson. (Present perfect)

Keyingi o'rinda o'qituvchi aynan ushbu shoshqoloq o'quvchi tufayli darsini to'xtatmasligi yoki o'zining dars o'tish usulidan voz kechmasligi lozim. Agar SIAH

o`quvchingiz sizga halaqit qilishni boshladimi, siz unga e`tabor bermay darsingizni o`tishda davom eting. Siz boshqa o`quvchilaringizga ma`lum bir mavzuga oid topshiriqni bajartirayotgan bo`lsangiz vaqtingizni behuda tanbeh berishga sarflamay, sinfdagi boshqa o`quvchilar bilan ishlashda davom eting. Shunda sizning shoshqolog`ingiz o`z-o`zidan tushunib yetib, dars jarayonidagi xatta-xarakatlarini ijobiy tomonga o`zgartirishi mumkin.

Yana boshqa yaxshi usullardan biri bu “flag up” usulini qo`llash deb ta`kidlaydi Paul Bless o`z maqolasida. Bu qanday usul? Darsni boshlanish qismida o`qituvchi o`z dars rejasiga asosan nimaga erishmoqchi bo`lsa, oldiga qo`ygan maqsadini namoyish qiluvchi materialni va o`quvchilar dars so`ngida qaysi olgan bilimlariga qanday baho olishlari mumkinligini ko`rsatib beruvchi baholash me`zonini barcha o`quvchilarga ko`rinarli qilib osib qo`yadi. Ana endi bizning “shoshqoloq” bugungi dars uchun o`z harakatini boshlaydi va dars so`ngiga qadar o`qituvchi muxri bilan tasdiqlangan yuqoridagi bayroqni olish uchun intiladi, chunki unda bayroqdor bo`lish hissi doimo mavjud. Ushbu usulni misol orqali tushuntirshimiz mumkin. Bugungi mavzu “Eating healthy food” bo`lib, o`quvchi dars oxiriga qadar o`z darsligidagi belgilangan sahifadan kamida beshta “activity”ni bajarishi, yangi so`zlarni belgilab, organib, lug`at daftarini ushbu sanasi uchun yo`zib qo`yishi, ish daftariga yangi so`zlar asosida gaplar yoki situatsiyalar yozishi va nixoyat “Eating healthy food” mavzusida ijobiy fikrlarini bayon qilishi lozim. Yuqoridagi har bir topshiriq uchun o`qituvchi ma`lum me`zon belgilab qo`yishi kerak. Bu til o`rganuvchilarga motivatsiya sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagi usulni foyda berish bermasligini o`qituvchi tekshirib turishi bu “shoshqolog`imiz”ni tarbiyalashning keyingi bosqichi hisoblanadi. Agar SIAH o`quvchimiz hali-xanuz nima uchun bu qadar ko`p topshiriq berilganini tushunmay, ishonchsizlik bilan sizga turli savollar berishda davom etsa, ana endi siz ham o`z navbatida undan mavzu borasida ketma-ket savollar so`rash orqali mavzuning asosiy kaliti nima ekanligini anglashiga majbur qiling. Masalan siz bergan “Eating healthy food” mavzusi bo`yicha 10-15 ta so`zni tahlilini so`rang. O`quvchi sizga albatta bu so`zlarning lug`aviy ma`nosini (connotative meaning) aytib beradi. Aksincha siz so`zlarni talaffuzini (pronunciation), imlosini (spelling), so`zda urg`uning joylashuvini (word stress), sinonimik qatorini (register), og`zaki nutqda ishlatilishini (collocational environment) va shu kabi leksik birliklarni so`rang. Bu kabi analitik ishlash orqali o`quvchi til o`rganish qay darajada uzoq, aniq faktlar orqali sodir bo`luvchi to`laqonli jarayon ekanligini tushunib yetadi va sekin asta shoshqoloqlikdan mukammallik tomon qadam tashlaydi.

Bizga ma`lumki til o`rgatish mobaynida tegishli mavzular o`tib bo`lingach, umumlashtiruvchi, o`tilgan mavzularni o`z ichiga olgan takrorlash darslari tez-tez o`tkazib boriladi.[3] Bu kabi takrorlovchi (review) darslarning natijalari doimiy shoshib topshiriq bajaruvchilarda aksariyat hollarda yomon baholar olish bilan yakunlanadi. Buning sababi o`zimizga ma`lum bo`lgan o`sha shoshqoloqlik. “Review” darslardan bir necha marta salbiy natijaga erishgan o`quvchi xavotirga tusha boshlaydi va til birliklarini yana qaytadan shoshmasdan takrorlashi lozimligini anglab yetadi. U sekin asta tinchlanib sinfdagi boshqa do`stlari kabi samarali til o`rganish yo`liga o`tib oladi.

So`nggi usul bu yuzma-yuz suhbatlashish hisoblanadi. Yuqorida ta`kidlaganimizdek o`qituvchi o`zining shoshqoloq o`quvchisining darsga bo`lgan qarashlaridan xabardor bo`lishi lozim. Agar o`qituvchining barcha sayyi harakatlariga qaramay ushbu o`quvchi hali-xanuz shoshishda davom etsa u holda o`qituvchi darsdan so`ng uning o`zini yolg`iz suhbatga chorlashi, uni yaxshilab e`tibor bilan tinglashi va so`ngida til o`rganish uzoq yillar davom etuvchi jarayon ekanligini, agar o`quvchi tilni mukammal egallamoqchi bo`lsa shoshilmay, sekin-asta, oddiylikdan mukammallikka tomon xarakatlanishi kerakligini o`qtirish lozim.[4] Agar o`qituvchi ushbu muloqotda yaxshi natijaga erishsa, o`quvchining unga bo`lgan xurmati va ishonchi ortadi. O`qituvchisining aytganlarini bajarishga xarakat qilish orqali o`zining yomon odatlaridan ya`ni shoshqoloqlikdan qutilib, nihoyat til o`rganishni o`zi uchun yangi sahifasini kash etadi.

Pedagog uchun har bir til o`rganuvchi ma`lum darajadagi obyekt xisoblanadi va o`zining pedagogik faoliyatining samarali natijasini ko`rmoqchi bo`lgan o`qituvchi o`z o`quvchilariga individual yondashuvi juda muhim. Yuqoridagi kabi shoshqoloq o`quvchilar esa o`qituvchidan bir o`z ko`proq e`tibor va ijodkor bo`lishni talab qiladi. Ushbu maqoladagi ayrim fikrlar bu borada ma`suliyatli o`qituvchilarga yordam beradi deb o`ylaymiz.

References:

1. Paul Bress. "Students in a hurry". English Teaching professional. Issue 80 may 2012.
2. Joan Kang Shin , JoAnn Crandal. "Teaching Young Learners English" Cambridge 2006.
- 3 . Gurrey P. "Teaching English as a foreign language" Longmans London.2003
4. Jim Scrivener. "Learning Teaching." The Essential Guide to English Language Teaching. Macmillan Education. 2011